

## IMOM ISMOIL AL-BUXORIYNING HADISLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA TALQINI VA UNI O'QUVCHILARDA SHAKLLANTIRISH

**Muhammad Yusuf Ominaxon Muhammad Sodiq**  
*Osiyo xalqaro universiteti magistranti.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada buyuk hadisshunos olim Imom Buxoriyning hadislarida ma'naviy-axloqiy tarbiya talqini va uni o'quvchilarda shakllantirish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar.** *Imom al-Buxoriy, hadis, mutafakkir, madaniyat, odob-axloq, tarbiya, olm, g'oya, din.*

Hozirgi vaqtda yoshlarni turli ijtimoiy illatlar, xususan, ekstremizm va terrorizm ta'siridan asrab-avaylashning eng muhim omillaridan biri bilim hisoblanadi. Yoshlar qanchalik bilimli bo'lsa, ularning adashib yot yo'llarga kirib qolishlari ham shunchalik kam kuzatiladi. "Jaholatga qarshi ma'rifat" ezgu g'oyasining asosiy mohiyati ham shundan iborat. Biz yashab turgan bugungi davrda har qanday tahlikali fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ham dolzarb masala bo'lib turibdi. Johilga johillik bilan qarshilik ko'rsatish yonib turgan olovga yog' sepish bilan barobar. Negaki, jaholat botqog'iga botgan kishi o'zini tubanlikda emas, yuksakda deb hisoblaydi, unga kimdir jahl qilgani sari jazavasi qo'ziydi. Shu bois, jaholatga qarshi faqat ilm va ma'rifat bilan kurashish kerak.

Sharq xalqlari o'zining bir necha ming yillik madaniyati va ma'naviy boyliklari, ilmiy ba'diiy mazmunga boy, mohiyati jihatdan yuksak g'oyaga ega bo'lganligi bilan tarixda ma'lum. Mutafakkirlar asarlardagi ilgari surilgan dunyoviy ilmlar va diniy ilohiy tasavvurlar bir butun holda qabul etilib, inson ilmiy tushunchalari asosida talqin etilib, ular jahonga mashhur qomusiy mutaffakkirlarimiz asarlarida keng o'rinn egallagan. Ta'kidlash joizki, Muso al-Xorazmiy, Imom Ismoil al - Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Shayx Najmiddinov Kubro, Sulaymon Boqirg'oniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamashshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Davoniy, Voiz Koshifiy va ulardan keyin ijod qilgan boshqa mutafakkirlar islom ta'limotini, Qur'oni Karimni, payg'ambarimizning aytgan so'zlari, diniy va axloqiy yo'l-yo'riqlari, hikmatlaridan iborat manba-Hadisi Shariflarni yaxshi bilganlar, ularning ta'sirida ijod etib, kelgusi avlodlar uchun benazir meros qoldirganlar. Mamlakatimizda "jaholatga qarshi - ma'rifat" degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi oljanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo'lib qoladi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning ta'limoti o'quvchilar tarbiyasida eng muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Imom al-Buxoriy hadis sultoni 810-yilda Buxoroda tavallud topgan. 10 yoshida boshlab hadislarni yod olib va butun umrini hadis olamiga bag'ishlagan. Mutafakkir hadis ilmi va uning turli tarmoqlarini to'liq o'rganish, hadislarni to'plash maqsadida Hijoz, Misr, Iroq, Xuroson va boshqa shaharlarda yashab inson ma'naviy olami uchun qadrlı bo'lgan hadislarni to'plagan. Imom al-Buxoriy yozgan asarlari sarasiga "Al-Jomi' as-sahih" ("Sahihi Buxoriy"), "Al-adab ul-mufrad" ("Adab durdonalari"), "at-Tarix va al-kabir" (Katta tarix), "Kitob asmo' as-sahoba" ("Sahobalar ismlari kitobi"), "at -Tarix al-avsat" (O'rtacha tarix), "at-Tarix as - sag'ir" (Kichik tarix), "Kitob ar-riqoq" (Nafosat haqida kitob), "Bir al-volidayn" (Ota - ona hurmati), "al- Adab al- mufrad" (Axloq - odob haqidagi hadislар to'plami) va boshqalarni kiritish mumkin. Imom al-Buxoriyning yigirmadan ortiq asarlari hadis ilmining turli sohalari bo'yicha yozilgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyin turadigan ikkinchi ijtimoiy - siyosiy, axloqiy, huquqiy hujjat hisoblangan "al-Jomiy as-sahih" asar, dunyoda "Sahih al-Buxoriy" nomi bilan mashhurdir. "AlBuxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. [1,28] Bu shoh asar ikki dunyo saodatiga eltuvchi yo'l sifatida qanchadan - qancha nusxalarda dunyoning turli tillariga tarjima qilinmoqda. Alloma asarlarida axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlarining markazida komillik, insonlarning o'zaro mehribon bo'lishlari, bir - birlariga har doim yordam berish, ahil - totuv yashash kerakligi, halol mehnat qilish, yaxshilik, ezgulik g'oyalari yotadi. Imom Buxoriy qalbi pok, iymonli, atrofdagilariga umuman zarar yetkazmaydigan, odamlarga faqat yaxshilik qiladigan va yordam beradigan insonlarnigina axloqan barkamol deb hisoblaydi.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning hadislarida insonning ma'naviy kamolga yetish uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo'lib, bular mehr-oqibat ko'rsatish, sahiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-onaliga va kattalarga, qarindoshlarga g'amxo'rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zaro do'st, tinchtotuv bo'lish, ilmning qadr qimmati ilm o'rganishga bo'lgan muhabbat va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, ma'naviy kamolga yetish uchun inson o'zini qanday bo'lmasin yomon illatlardan tiyish, har qanday yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham axloqiy-ma'naviy tarbiyani rivojlantirishda o'z ifodasini topgan bo'lib bularning barchasi Qur'oni Karim ko'rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sifatida hozirgi kunda yoshlarimizda ma'naviy tarbiya uchun yetakchi omillardan biri sanaladi.

Imom Buxoriy hadislaridan: "Insonlarga yomonlik qilishdan uzoq tur. Zero bu o'zingga sadaqadir". Ya'ni, boshqalarga foydasi tegadigan odam eng yaxshi insondir. Islom insonning manman, xudbin bo'lib, faqat o'z manfaatini o'ylab, ish tutishini ma'qul ko'rmaydi. Alloh boshqalar uchun fidoyi, samimiyy va hojatbaror bandalarini qadrlaydi. ( Buxoriy, 2518) Demak, hadisning mohiyati shunga qaratilganki, odamlar

bir – biriga faqatgina moddiy narsalar bilan yordam berish emas, balki moddiy va ma’naviy imkoniyatiga qarab muhtojlarga yordam berishi, imkoniyati bo’lmaidanida esa birovlargan umuman yomonlik qilmashlik bilan ham birovlargan yaxshilik qilishi e’tirof etilgan.

Alloma “Al-Adab al-mufrad” asarida ham inson axloqi odobi, ma’naviy kamolotiga doir hadislarni turli mavzular bo'yicha tasnif qilgan va izohlar bergan. Asarning ilk boblarida ota – ona oldida farzandlik burchlari, ota – onani rozi qilish, ularning haqini ado qilish, ota – ona amriga itoat qilish, ularga yaxshilik qilish, ularni dilini og’ritmaslik, qarindosh – urug'larga mehr – shavqat, rahmdillik, yosh bolalarga, ayollarga mehr – muruvvatli bo'lish, bolalar va kattalar arazlashib, urishib qolganda yarashtirib qo'yish, imorat qurishda va boshqa ishlarda kamtarlik bilan ish tutish, takabburlik va so'kinishning yomonligi, jabr – zulmning yomonligi, rostgo'ylik va yolg'onlik, halol va harom, savob va gunoh ishlar kabi inson ma’naviy hayotiga doir muhim muammolar to'g'risida fikr yuritilgan. Jumladan, “Kimki rizqi mo'l, umri uzoq bo'lishini istasa, qarindoshlarini ziyyarat qilsin (ular bilan munosabatni davom ettirsin).” (Buxoriy, 2986). Hadisi sharifda “silai rahm”, ya’ni qarindoshlar bilan rishtalarni mustahkamlash xususida tavsiya bor. “Silai rahm” qarindoshlik rishtalari va mas’uliyatining unitilmasligidir. Qarindoshlar ichida yordam va e'tiborga muhojirlar bo'lsa, ulardan yordamni ayamaslik kerak. Qarindoshlik rishtasini uzish katta gunoh sanaladi. Qarindoshlar bilan yaxshi munosabatda bo'lish rizqning ko'payishi, hayotning osoyishta, quvonch bilan o'tishi va umrning uzoq bo'lishiga sababdir. Al – Buxoriy merosida qo'shnichilik munosabatlariga alohida to'xtalib o'tiladi. Yaxni qo'shnichilik munosabatlari ulug'lanadi va uni rivojlantirish yoqlab chiqiladi.

Biz ko'z o'ngimizda dunyoning turli joylarida ro'y berayotgan iqtisodiy va ijtimoiy, axborotkommunikatsiya manzarasidagi chuqur o'zgarishlar, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda yashamoqdamiz. Hammamizga ma'lumki har qanday kasallikning oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga qarshi kurashuvchi immunitet hosil qilinadi. Shunday ekan biz yoshlar ongida ham ona Vatanimizga bo'lgan muhabbatimiz, qadimi boy tariximizga, ota-bobolarimiz kabi o'z dinimizga sadoqat tuyg'ularini yanada shakllantirishimiz, kelajak avlodlarga yetkazib, kerak bo'lsa ularning ongida va qalbida mafkuraviy, ma’naviy immunitetni kuchaytirishimiz muhim o'rinn tutadi. Toki yoshlar milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqurroq anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shundagina johil aqidaparastlarning "da'vat"i ham ahloq-odob tushunchalarini rad etadigan, bizlar uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Yoshlardagi ma’naviy bo'shliqni to'ldirish uchun ularni turli tajovuzlardan himoya qilish uchun avvalo ularning qalbida Vatanimizga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytirish, buyuk tariximizni, milliy urf-odatlarimizni qalblariga singdirish zarurdir. Yana milliy o'zligimizga salbiy ta'sir ko'rsatgan milliy qadriyatlarimizni rivojlanib borishiga to'sqinlik qilgan, o'zligimizdan ayirmoqchi bo'lganlarni, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham

ochiqso'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda hudbinlik va loqaydlik, qarindoshurug'chilik va mahalliychilik, manfaatparastlik va korrupsiya, o'zgalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay halos etish to'g'risida chuqr o'ylashimiz kerak.

Xulosa qilganda, Imom al-Buxoriy hadislarining jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan yosh avlodda ezgulik va go'zallik tuyg'ularini mujassamlashtiradi. Ilm-fanda "Hadis ilmining amiri" deb bir ovozdan tan olingan Imom Ismoil al Buxoriy hadislari mehroqibat, sahiylik, ota-onalik, kattalarga omad, yetim-yesirlarga muruvvat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik, turli xalqlarning o'zaro do'st, tinch-totuv yashashlari kabi insoniy fazilatlari barkamol avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Buyuk siymolar, allomalar. 1 – kitob, - Toshkent, Fan, 1995
2. Shovosil ZIYODOV, Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishning samarali modeli
3. Bobomurod ogli, O. B., & Abdulla ogli, J. B. (2023). IMOM AL BUXORIYNING HADISLARINI YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN ORNI.
4. 4.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Odoblar xazinasi", "Al-adab al 5.
- 5.Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adabu-l-mufrad. Bayrut. Doru-l-bashoiri-lislomiya, 1989. -B.443.